



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG‘I

13.01.2022 yil

5 um-son

### **Toshkent davlat yuridik universiteti Kuzatuv kengashi tarkibi va Kuzatuv kengashi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son qarorining 3-bandi hamda O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 30-dekabrda 346-um-son buyrug‘ining 3-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida

#### B U Y U R A M A N:

1. Quyidagilar:

Toshkent davlat yuridik universiteti Kuzatuv kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Toshkent davlat yuridik universiteti Kuzatuv kengashi to‘g‘risida nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tashkiliy-nazorat va tahlil boshqarmasi (A. Buriyev) mazkur buyruqni vazirlikning manfaatdor tarkibiy bo‘linmalariga yetkazsin.

3. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari A. Muxammadiyev zimmasiga yuklansin.

**Adliya vaziri**



**R.DAVLETOV**

**Toshkent davlat yuridik universiteti kuzatuv kengashi**  
**TARKIBI**

1. R.Q. Davletov - O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri,  
*Kuzatuv kengashi raisi*
2. B.B. Valiyev - O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining birinchi  
o‘rinbosari, *Kuzatuv kengashi raisi o‘rinbosari*
3. X.S. Turaxujayev - O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi o‘rinbosari
4. A.I. Ikramov - O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri o‘rinbosari
5. R.R. Xakimov - O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’limi  
vaziri o‘rinbosari
6. A.D. Tashkulov - Toshkent davlat yuridik universiteti rektori
7. A.K. Ernazarov - O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi raisi
8. D.R. Ashurov - O‘zbekiston Respublikasi Notarial palatasi raisi
9. U.A. Aripdjanov - Centil Law Firm xalqaro yuridik firmasining Toshkent  
ofisi partneri, Universitet bitiruvchisi
10. K.B. Lamm - White and Case xalqaro yuridik firmasi partneri
11. B. Sabaxi - Curtis xalqaro yuridik firmasi partneri
12. H.B. Boboyev - Toshkent davlat yuridik universiteti Faxriylar kengashi  
raisi, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi
13. I.R. Rustambekov - Toshkent davlat yuridik universiteti prorektori,  
*Kuzatuv kengashi kotibi*

**Izoh:** Kengash a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ko‘rsatilgan lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

## **Toshkent davlat yuridik universiteti Kuzatuv kengashi to‘g‘risida NIZOM**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom Toshkent davlat yuridik universiteti Kuzatuv kengashi (keyingi o‘rinlarda – Kengash) faoliyatini tartibga soladi.

2. Kengash “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5987-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son hamda “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son qarorlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladi hamda Toshkent davlat yuridik universitetining (keyingi o‘rinlarda – TDYU) jamoatchilik boshqaruv organi hisoblanadi.

3. Kengash yuridik shaxs hisoblanmaydi va u o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

4. Kengash o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizom va kengash reglamentiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

5. Kengash tarkibiga tegishli vazirlik, idoralar, kadrlar buyurtmachilari jamoatchilik vakillari va homiylar, shuningdek TDYU faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishdan manfaatdor bo‘lgan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar kirishi mumkin.

6. Kuzatuv Kengashining tarkibi va Kengash to‘g‘risidagi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

## **2-bob. Kengashning vazifalari va vakolatlari**

Quyidagilar Kengashning vakolatlari hisoblanadi:

TDYUning uzoq va o'rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini tasdiqlash, xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining yuqori o'rinlaridan joy olish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni belgilash hamda uning amalga oshirilishini nazorat qilib borish;

TDYUning o'rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish;

ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar hamda ixtisosliklar bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul parametrlarini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

TDYU oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosi, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish holati bo'yicha rektor va prorektorlar faoliyatini o'rganish hamda axborotini eshitish;

TDYUning ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga moliyaviy nazorat o'tkazish uchun qo'shimcha topshiriq berish hamda nazorat tadbirlarining natijasi yuzasidan hisobot olish;

TDYUning rivojlantirish va uning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal etish, shu jumladan nodavlat notijorat tashkiloti ko'rinishida maqsadli kapital jamg'armasini shakllantirish;

ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, TDYUning innovatsion va boshqa jamg'armalar mablag'larini sarflash tartibi va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;

TDYU rahbari va xodimlari hamda professor-o'qituvchilari faoliyatiga baho berish, ular faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlash;

TDYU hamda ular huzuridagi ta'lim va ilmiy muassasalarning rahbari va xodimlari, professor-o'qituvchilari, shuningdek, xorijiy mutaxassislar uchun mehnatga haq to'lash miqdori va samaradorlik mezonlariga asoslangan rag'batlantirish tartibini mustaqil belgilash;

TDYUning byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibini, shu jumladan xarajatlarning taqsimlanish ulushini belgilash;

TDYU rektori va prorektorlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish;

o'z vakolatlarini TDYU kengashiga topshirish, shuningdek, TDYU kengashiga kiruvchi vakolatlarni o'z zimmasiga olish.

8. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun Kengash:

TDYU tomonidan belgilangan tartibda Kengashga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumot va axborotlarni oladi;

Kengash to'g'risidagi nizomga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi va kiritadi;

TDYU faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha takliflar bilan davlat organlariga murojaat qiladi;

Kengash, ushbu Nizom, TDYU ustavi va qonunchilikga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **3-bob. Kengash faoliyatini tashkil etish**

9. Kengash ishtirok etishning ixtiyoriyligi va Kengash vakolatiga tegishli masalalarni hal etishda uning barcha a'zolarining teng huquqliligi tamoyillari asosida shakllantiriladi.

Kengash, qoidaga ko'ra, Kengash raisi, uning o'rinbosari, kotib va a'zolaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

10. Kengash raisi:

Kengash majlisi kun tartibini belgilaydi va uni chaqiradi;

Kengash qarorlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishi nazorat qilinishini tashkil etadi;

Kengashning yillik ish rejasini tasdiqlaydi, shuningdek Kengashning yillik ish rejasi bajarilishi to'g'risidagi hisobotni Kengashga taqdim etadi;

Kengash a'zolariga yuklangan vazifalar bajarilishi yuzasidan ularning ishini muvofiqlashtiradi;

davlat organlari va boshqa tashkilotlarda Kengash nomidan vakillik qiladi;

Kengashning samarali ishlashini ta'minlash uchun boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

11. Kengash a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

Kengash majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal etishda qatnashish;

TDYU faoliyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha Kengashga takliflar kiritish;

Kengash tomonidan ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha xulosa taqdim etish.

Kengash a'zolari Kengash tarkibida o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradilar.

Kengash a'zolari majlisda shaxsan qatnashishi kerak. Bunday qatnashishning imkoni bo'lmagan taqdirda Kengash a'zosi majlisning kun tartibi bo'yicha o'z fikrini Kengashga yozma ravishda taqdim etishga haqlidir.

12. Kengash o'z ishlarini o'zi tasdiqlagan rejalar asosida amalga oshiradi va o'z majlislarini zaruriyatga ko'ra, biroq yilda bir marta o'tkazadi. Kengash raisi tomonidan uning a'zolarining yozma iltimosnomalari asosida navbatdan tashqari majlislar chaqirilishi mumkin. Iltimosnomalarda navbatdan tashqari majlisni chaqirishning sabablari va asoslari bayon qilinishi kerak.

13. Kengash majlisi videokonferensiya shaklida ham o'tkazilishi mumkin.

14. Kengash majlisini Kengash raisi, u bo'lmagan taqdirda esa – Kengash raisi o'rinbosari boshqaradi.

Kengash majlisi unda Kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashganda huquqiy vakolatli hisoblanadi.

Majlisni o'tkazish uchun kvorum yoki rais va uning o'rinbosari bo'lmaganda Kengash majlisini o'tkazishning yangi sanasi e'lon qilinadi.

15. Kengash majlisida ko'rib chiqiladigan masalalarning xususiyatiga ko'ra davlat organlari va boshqa tashkilotlarning rahbarlari va mutaxassislari, TDYU xodimlari, ayrim jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxs vakillari taklif etilishi mumkin.

16. Kengash kotibi:

Kengash majlisiga barcha zarur hujjatlarni o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

majlisni o'tkazish muddatlari va joyini Kengash raisi bilan kelishadi;

kun tartibi masalalari bo'yicha Kengash majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

Kengash a'zolari va taklif etilgan shaxslarni majlisning sanasi, kun tartibi loyihasi, majlisni o'tkazish vaqti va joyi haqida xabardor qiladi;

Kengash qarorlari bajarilishi monitoringini yuritadi;

Kengash bayonini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonni Kengash a'zolariga va boshqa manfaatdor tashkilotlarga yuboradi.

17. Kengash o'z faoliyatini TDYU rektori bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

#### **4-bob. Kengash tomonidan qarorlar qabul qilish va ularning bajarilishini tashkil etish**

18. Kengash qarori Kengashning majlisda qatnashgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda Kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

19. Kengash qarorlari Kengash majlisining bayoni bilan rasmiylashtiriladi. Kengash majlisining bayoni Kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi va bir hafta muddatda Kengash a'zolariga va manfaatdor tashkilotlarga yuboriladi.

20. Kengash bayonining asl nusxasi va uning materiallari TDYUda saqlanadi.

21. TDYU rektori Kengash hujjatlarining saqlanishi va ularning saqlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

22. Kengash kotibi Kengash a'zolarining yordamida Kengash qarorlarining bajarilishini muntazam ravishda o'rganadi va ko'rib chiqadi, zaruriyat bo'lganda, Kengash raisiga tegishli takliflar kiritadi.

23. Kengash qabul qilingan qarorlarning ijro etilishi holatini o'z majlislarida muntazam ravishda ko'rib chiqadi.

24. Kengashning ish tartibi Kengash tasdiqlaydigan reglamentda belgilanadi.

### **5-bob. Yakunlovchi qoidalar**

25. Ushbu Nizom tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

26. Ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar qiritish adliya vazirining buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.